

# TERMIZ SHAHRIDA AHOLI MUAMMOLARINI “XONADONBAY” O‘RGANISH VA AMALIY YORDAM KO‘RSATISH YUZASIDAN O‘QUV SEMINARI O‘TKAZILDI



TERMIZ SHAHRIDA AHOLI MUAMMOLARINI “XONADONBAY” O‘RGANISH VA AMALIY YORDAM KO‘RSATISH YUZASIDAN O‘QUV SEMINARI O‘TKAZILDI

Shahrimizda aholi muammolarini “xonadonbay” o‘rganish, aniqlangan masalalarni bartaraf etish bo‘yicha har bir mahallaning chora-tadbirlar rejasi va yo‘l xaritalarini ishlab chiqish, aholi bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bugun Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida sektor va aloqador tashkilotlar

rahbarlari, mahallalarda faoliyat yuritayotgan “beshlik” vakillari ishtirokida ushbu tizimni joriy etish bo'yicha o'quv seminari o'tkazildi. Unda Prezident Administratsiyasi vakillari F.Azizov, I.Mavlonov va viloyat Xalq qabulxonasi mudiri A.Eshmurodovlar ishtirok etishdi.

Seminarda ma'ruzachilar tomonidan Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani tajribasi asosida Mahallabay uyma-uy yurib, aholi muammolarini o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Yukunda seminar ishtirokchilari xatlov o'tkazishda duch keladigan ba'zi bir masalalar bo'yicha berilgan savollariga batafsil javob berishdi.







Image not found or type unknown

